

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**


**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNI-
KA UNIVERSITETI**

«AMALIY MEXANIKA» FANINIDAN

**ZANJIRLI VA TASMALI YURITMA-
LARNING TUZILISHINI**

**O'RGANISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR
VA LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISH BO'YICHA**

USLUBIY KO'RSATMALAR



Toshkent – 2018

Tuzuvchi: Baratov N.B. «Amaliy mexanika» faninidan zanjirli va tasmali yuritmalarining tuzilishini o‘rganishda amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar». - Toshkent, ToshDTU, 2018 y. 40 b.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma ToshDTU ning mutaxassisligi mexanik bo‘lmagan talabalari (bakalavrlar) uchun o‘quv rejasi asosida «Amaliy mexanika» kursi bo‘yicha amaliy va laboratoriya ishlarini bajarishda ko‘zda tutilgan mexanik yuritmalarining tuzilishi va ishlashini o‘rganishlarida foydalanish uchun tuzilgan.

Uslubiy ko‘rsatma mahsulotni ishlab chiqarish talablarini amalga oshirish uchun texnologik mashinalarni tuzishda qo‘llanadigan mexanik yurltmalar va ularning tarkibini hosil qiluvchi uzellarining tuzilishi, ishlashi va bir- biri bilan bog‘lanishini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, mexanik yuritmalarining asosiy konstruksiyalarining o‘ziga xosliklari va tasniflanishlarini hamda texnologik mashinalarni yaratishda mexanik yuritmalarining imkoniyatlardan unumli foydalanishni o‘rganishdan iborat.

Uslubiy ko‘rsatmaning mazmuni «Amaliy mexanika» kursining «Mashina detallari» bo‘limini qamrab olgan bo‘lib, fanni terangroq o‘rganishga yordam beradi.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
ilmiy-uslubiy kengash qarori asosida nashr etildi.*

Taqrizchilar:

TKTI “OOSMJ-MA” kafedrasi mudiri, dotsent A.N.Shernaev,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Materiallar qarshiligi va mashina detallari” kafedrasi katta o‘qituvchisi Axmedjanov Yu.A

1. Mexanik yuritmalar haqida umumiy ma'lumotlar

Ishning maqsadi: mexanik yuritmalarining asosiy konstruksiyalarining o'ziga hosliklari va tasniflanishlarini hamda texnologik mashinalarni yaratishda mexanik yuritmalarining imkoniyatlaridan unumli foydalananishni o'rganishdan iborat.

Nazariy qism

Insonlarning ehtiyojiy, jismoniy va aqliy mehnatlarini osonlashtirish va samaradorligini oshirish uchun unsurlar (materiallar)ni, axborotni yoki quvvatlarni o'zgartiruvchi, harakatni bajaruvchi vosita – mexanik qurilmalar yaratiladi.

Har qanday texnologik mashinaning yuritmasi harakatning miqdor va yo'nalishini o'zgartirish asosida texnologik talablarni amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi bir va bir necha mexanizmlardan - jismlar tizimidan tashkil topgan bo'ladi.

Texnologik mashinalarning ishlashi ularning qismlarining harakati bilan bog'liq bo'ladi.

O'lchash, ishlab chiqarishni nazorat qilish, mashinalarni boshqarish, texnologik jarayonni sozlash, hisobga olish va boshqa vazifalarni bajaruvchi qurilmalarni **asboblar** deyiladi.

Asboblar ham mexanizmlardan tashkil topgan bo'ladi.

Texnologik mashinaning ishchi qisminini harakatga keltirish uchun ularga yuritkichlardan mexanik harakat uzatiladi. Aksariyat hollarda , yuritkich va mashinaning ishni bajaruvchi qismlari to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ulanmagan bo'lib, odatda mexanik, gidravlik, pnevmatik, elektrik ko'rinishga ega bo'lgan **yuritma** deb ataluvchi **mexanizmlar** orqali bog'lanadi.

Quyida biz faqat **mexanik yuritmalar** bo'yicha ish yuritamiz.

Texnikada aylanma harakat ko'proq tarqalganligi sababli ushbu harakatni o'zgartirish uchun yuritmalar keng qo'llaniladi.

Aylanma harakat tezligini o'zgartirish aylantiruvchi momentni o'zgartirish bilan birga amalga oshiriladi.

Yurgazgichdan uning iste'molchilariga aylanish chastotasi (*soni - n*) ni kamaytirish hisobiga aylantiruvchi moment *M* ni ko'paytirib quvvat *N* uzatishga mo'ljallangan mexanizmlar **kuch uzatuvchi** yoki **transmisiya** deb nomlanadi. Texnologik jarayonni amalga oshiruvchi majmua **mashina agregati** deb nomlanadi (1- rasm.).


2. Yuritmalarining asosiy tasnif va tavsiflari

Umumiyl holda, yuritmalarini harakat uzatish usuliga qarab tasniflash mumkin, ya'ni:


- ishqalanish kuchi bilan uzatish (friksion, tasmali);
- ilashish bilan uzatish (tishli, chervyakli, zanjirli, tishli-tasmali, vint-gayka).

Zvenolarining bog'lanish usuli bo'yicha:

- bevosita bog'lanish (kontakt) dagi yuritmalar (friksion, tishli, chervyakli, vint-gayka);
- egiluvchan bog'lovchili yuritmalar (tasmali, zanjirli).



1- rasm. Mashina aggregatining sxemasi



2- rasm. Ikki pog'onali reduktoring sxemasi

Yuritmaning yurgazgichdan harakat oluvchi zvenosi – **yetaklovchi**, harakat beriluvchi zvenosi esa – **yetaklanuvchi** zveno deb nomlanadi. Bundan tashqari, yuritmalarda oraliq zvenolar ham bo'lishi mumkin.

Yuritmaning asosiy tasnifi:

- | | |
|--------------------------------------|-------------|
| - uzatish nisbati | - i , |
| - uzatilayotgan quvvat | - N (kVt) |
| - foydali ish koeffitsienti (f.i.k.) | - η . |

Uzatish nisbati deb **yetaklovchi** zvenoning burchak tezligi ω_1 ni **yetaklanuvchi** zvenoning burchak tezligi ω_2 ga nisbatiga aytildi.

$$u = \frac{\omega_1}{\omega_2}$$

Uzatish nisbati birdan katta, kichik yokiunga teng bo'lishi mumkin. Yuritmaning **uzatish soni** deb katta burchak tezligini kichik burchak tezligiga nisbatiga aytildi.

Uzatish soni birdan kichik bo‘lishi mumkin emas. Mashina detal-larini mustahkamlikka hisoblashning analitik ifodalarida doimo uzatish soni, ya’ni $u \geq 1$ bo‘ladi.

Yetaklanuvchi zvenoning burchak tezligi yetaklovchi zvenoning burchak tezligidan kam bo‘lgan yuritmalar ***pasaytiruvchi***, aks holda ***ko‘paytiruvchi yuritma*** deb nomlanadi. Burchak tezliklarini kamaytirib, burovchi momentni ko‘paytirib o‘zgartiruvchi yopiq yuritmalar ***reduktor*** deb nomlanadi.


Mexanik yuritmalar bir pog‘onali va ko‘p pog‘onali bo‘ladi. Ketma-ket ulangan yuritmalarining uzatish nisbati ularning uzatish nisbatlarini ko‘paytmasiga teng. Masalan, ikki pog‘onali reduktor uchun (2- rasm).

$$u_{14} = u_{12} \cdot u_{34}$$


Yuritmalarini doimiy yoki o‘zgaruvchan uzatish nisbatli qilib tayyor-lanadi, bunda uzatish nisbatini o‘zgartirishni pog‘onali yoki pog‘onasiz amalga oshirish mumkin.

Uzatish nisbatini pog‘onali o‘zgartirish, masalan, metall kesuvchi dastgohlar, avtomobil va traktorlarning yuritmalar qutisida qo‘llaniladi.

Uzatish nisbatini ravon o‘zgartirib uzatuvchi mexanizm ***pog‘onasiz yuritma*** yoki ***variator*** deb nomlanadi. Ularning ayrimlarining sxemalari quyidagicha (3- rasm):



friksion




tasmali

«Nazariy mexanika» kursidan aylanma harakatda quvvat


$N = \omega T$
ga tengligi ma’lum.

Yuritmaning yetaklanuvchi zvenosidagi quvvat N_2 ni yetaklovchi zvenosidagi quvvat N_1 ga nisbati ***mexanik foydali ish koeffitsiyenti -η (f.i.k.)*** deyiladi va quyidagicha ifodalanadi.

$$\eta = \frac{N_2}{N_1}$$



friksion



friksion

3- rasm. Variatorlarning sxemalari

Mexanik foydali ish koeffitsiyenti mexanik yuritmani tasniflaydi. Har xil yuritmalar uchun ***f.i.k.*** ($\eta = 0,25 \div 0,98$) oraliqda bo‘ladi.

Ko‘p pog‘onali yuritmalarda (pog‘onalar ketma-ket ulanganda) umumiyy ***f.i.k.*** har bir pog‘onaning alohida ***f.i.k.***larini ko‘paytmasi ko‘rinishida aniqlanadi.

$$\eta_{um} = \eta_1 \cdot \eta_2 \cdot \dots \cdot \eta_n$$

Yuritmaning ishga layoqatliligini yo‘qotishga olib keluvchi chegarmaviy holat ***yuklanuvchanlik*** deyiladi. Yuklanuvchanlik xususiyati zaxirasi tushunchasi o‘z ichiga chidamlilik zaxirasini ham oladi.

Quyida texnologik mashinalarni loyihalashda keng qo‘llaniladigan mexanik yuritmalarning asosiy konstruksiyalari keltirilgan.

3. Tasmali yuritmalar


Tasmali yuritma mexanik yuritmalarning eng qadimgilaridan hisoblanadi.

Tasmali yuritma deb vallarga mahkam o‘rnatilgan ***shkivlar*** va shkivlarni qamrab oluvchi cheksiz egiluvchan bog‘lovchi – taranglashtirilgan

harakatlanuvchi ***tasmadan*** iborat aylanma harakatning miqdori va yo‘nalishini o‘zgartirishga xizmat qiluvchi mexanizmga aytildi (4-rasm).

Tasmali yuritma mashinasozlik sanoatining barcha sohalarida qo‘llaniladi.

Ko‘p hollarda tasmali yuritmalarini harakatni pasaytiruvchi qilib tayyorlanadi.



4-rasm. Tasmali yuritmaning kinematik sxemasi:

- 1- yetaklovchi shkiv; 2- egiluvchan bog‘lovchi – taranglashtirilgan
- 2- harakatlantiruvchi tasma; 3- yetaklanuvchi shkiv.

Tasmali yuritmaning afzalliklari:

- onstruksiyasining oddiyligi va foydalanishdagi qulayligi;
- harakatlantiruvchi tasmani xususiyatlari natijasidagi bir-biridan – uzoq joylashgan (**15 m**) va undan ko‘p) vallarga harakatning miqdori va yo‘nalishini o‘zgartirib uzata olishi;
- ravon va shovqinsiz ishlaydi;
- tannarxining arzonligi.


Kamchiliklari:

- harakatlantiruvchi tasmalarning umurboqiyiligining kamligi;
- nisbatan joylashish gabaritsining kattaligi;
- tasmani taranglashtiruvchi kuch natijasida vallar va ularning tayanchlaridagi yuqori yuklanishlar;
- tasma bilan shkiv orasidagi sirpanishning mavjudligi sababli ko‘pchilik tasmali yuritmardagi uzatishlar sonining doimiy emasligi.

Ko‘rsatilgan afzallik va kamchiliklar tasmali yuritmani murakkab yuritmaning tezkor pog‘onasida qo‘llashni maqsadliliginini ta’minlaydi, ko‘p hollarda yetaklovchi shkivni elektr yurgizgich valiga o‘rnatish kuzatiladi. Hozirda qo‘llanilayotgan tasmali yuritmardagi uzatiladigan quvvat **50 kVt** dan oshmaydi, chunki katta quvvatlarda yuritmaning gabaritsi juda ham qo‘pollashadi.

Tasma ko‘ndalang kesimi yuzasining shakliga qarab yuritmani tasniflash mumkin (5-rasm)

Bularning dastlabki to‘rttasi ishqalanish orqali, oxirgisi esa ilashish orqali harakat uzatuvchi hisoblanadi.



5-rasm. Tasmali yuritmalarining tasma kesimi bo‘yicha tasniflanishi:

- a) – yassi tasmali; b) – ponasimon tasmali; c) – yumaloq tasmali;
- e) – ko‘p ponasimon tasmali; f) – tishli tasmali.

Tasmali yuritmalar kinematikasi.

Shkivlardagi aylanma tezliklar quyidagicha bo‘ladi:

$$v_1 = \frac{\omega_1 d_1}{2} \quad \text{va} \quad v_2 = \frac{\omega_2 d_2}{2}$$

bu yerda: v_1 , v_2 – mos ravishda yetaklovchi va yetaklanuvchi shkivlarning aylanma tezliklari;

d_1 , d_2 – yetaklovchi va yetaklanuvchi shkivlar diametrlari.

Yuritmaning ishlashi jarayonida tasma shkiv ustida ma’lum darajada sirpanishga uchraydi, shuning uchun $v_1 > v_2$ bo‘ladi yoki

$$v_2 = v_1 (1 - \varepsilon)$$

bu yerda $\varepsilon = 0,01 - 0,03$ sirpanish koeffitsiyenti.

Yuritmaning uzatish nisbati esa quyidagicha bo‘ladi:

$$u = \frac{\omega_1}{\omega_2} = \frac{n_1}{n_2} = \frac{d_2}{d_1 (1 - \varepsilon)}.$$

Yuritmaning geometriyasi (5-rasm).

Eng avvalo, tasmali yuritmadi shkivlarning geometrik o‘lchamlarini topamiz. Yuritmadi kichik shkivning diametrini quyidagi formuladan topiladi:

$$d_1 \approx (52 \dots 64) \cdot \sqrt[3]{T_{1bur}}$$

bu erda T_{1bur} –kichik shkiv validagi burovchi moment.

Katta shkivning diametri quyidagicha aniqlanadi:

$$d_2 = d_1 \cdot u$$

So‘ngra, hisoblab topilgan d_1 va d_2 larni DAST bo‘yicha yaxlitlanadi.

Uzatish nisbatining haqiqiy qiymati u_h topiladi.

Sanoatda bir valdan ikkinchi valga katta quvvatni uzatish uchun ponasmontasmali yuritmadan ko‘proq foydalilanadi, chunki bunday yuritmada shkiv bilan tasmaning ilashish yuzasi katta bo‘ladi.

Tishli tasmali yuritmalarda uzatish nisbati o‘zgarmasdir. Ularda tortish qobiliyati ham yuqoridir.

Doiraviy tasmali yuritmalar, asosan, unchalik katta bo‘lmagan quvvatlarni uzatish uchun qo‘llaniladi. Ular asosan uy anjomlarida va o‘lchov asboblarida qo‘llaniladi.

O‘qlararo masofa “ a ” yassi tasmali yuritmada konstruktiv talablarga (yuritmaning tashqi o‘lchamlari, qamrov burchagi, va h.k.) binoan tanlanadi.

Yassi tasmali yuritma uchun tavsiya etiladi:

$$a \geq (1,5 \div 2,0) \cdot (d_1 + d_2).$$

Ponasimonl tasmali yuritma uchun tavsiya etiladi:

$$\begin{aligned} a_{\min} &= 0,55 \cdot (d_1 + d_2) + h \\ a_{\max} &= 2 \cdot (d_1 + d_2) + h \end{aligned}$$

Ba’zan o‘qlararo masofa $a' = c \cdot d_2 > a_{\min}$ ifoda bo‘yicha topiladi, bu yerda c ning qiymati quyidagicha tanlanadi:

u	1	2	3	4	5	6 va undan yuqori
c	1,5	1,2	1,0	0,95	0,90	0,85

Tasmaning uzunligi l_x quyidagicha hisoblanadi:

$$l_x = 2a' + 0,5\pi(d_1 + d_2) + 0,25(d_2 - d_1) \cdot \frac{2}{a}$$

So‘ngra tasmalarni o‘zaro ulash maqsadida bu hisoblangan uzunlik l_x 100 ... 400 mm. ga uzaytiriladi. Bu qiymatni DAST jadvallariga binoan yaxlitlanadi. So‘ngra o‘qlararo masofaning haqiqiy qiymati aniqlanadi:

$$a = 0,25 \left(\Delta_1 + \sqrt{\Delta_1^2 - 8\Delta_2} \right)$$

$$\Delta_1 = l_x - 0,5\pi(d_1 + d_2), \quad \Delta_2 = 0,25\pi(d_2 - d_1).$$

Kichik shkivning qamrov burchagi quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_1 = 180^\circ - 2\gamma = 180^\circ - 57^\circ \frac{(d_2 - d_1)}{a}$$

Tasmali yuritmalarda kuchlar taqsimoti.


Ma’lumki, tasmali yuritmadagi foydali kuch tasma bilan shkiv orasidagi ishqalanish kuchining mahsulidir. Demak, bunday yuritmani mo‘tadil ishlashiuchun ularga qo‘srimcha taranglik berilishi kerak (6-rasm, a). Natijada hosil bo‘lgan ishqalanish kuchining qiymati

$$F_{ish} > F_t$$

bo‘lishi kerak. Bu yerda $F_{ish} = F_0 \cdot f$ – tasma bilan shkiv orasidagi ishqalanish kuchi, $F_t = \frac{2M}{d}$ – tasmadagi aylantiruvchi kuch (6-rasm, b).

Tasmaning yetaklovchi tarmoqlaridagi kuchni F_1 , yetaklanuvchi tarmoqdagisini F_2 desak, u holda shkiv markaziga nisbatan muvozanatlik tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$-M_1 - \frac{F_2 \cdot d_2}{2} + \frac{F_1 \cdot d_1}{2} = 0.$$



6-rasm. Tasmali yuritmalarda kuchlar taqsimoti

Agarda $F_t = \frac{2M_1}{d_1}$ ekanligini e'tiborga olsak, u holda

$$F_t = F_1 - F_2$$

bo'ladi.

Tasmali yuritma harakat jarayonida yetaklovchi tarmoqdagi kuch ΔF ga ortadi, yetaklanuvchi tarmoqda esa ΔF ga kamayadi, ya'ni

$$F_1 = F_0 + \Delta F, \quad F_2 = F_0 - \Delta F$$

bundan

$$F_1 + F_2 = 2F_0$$

ifodalarni birgalikda yechib quyidagini olamiz.

$$F_1 = F_0 + 0,5F_t, \quad F_2 = F_0 - 0,5F_t$$

Ushbu ifoda F_1 va F_2 tarangliklarni F_t va F_0 larga bog'liq ekanligini ko'rsatadi, lekin tasmali yuritmaning tortish qobiliyatini bildirmaydi.

Tasmaning tortish qobiliyati, avvalo, tasma bilan shkiv orasidagi ishqalanish koeffitsiyentiga va qamrov burchagiga bog'liq.

Bu masala birinchi marotaba L.Eyler tomonidan hal qilingan.

Bu formulaga binoan

$$\frac{F_1}{F_2} = e^{f\alpha_1}$$


bu yerda: e – natural logarifm asosi; f – ishqalanish koeffitsiyenti; α_1 – kichik shkivning qamrov burchagi.

Tasmali yuritmada katta tezlik bilan ishlashi natijasida markazdan qochma kuch hosil bo‘ladi. Bu kuch o‘z navbatida taranglik F_0 ning qiymatini pasaytiradi, natijada tasmaning tortish qobiliyatini susaytiradi.

$$F_v = \rho \cdot A \cdot v^2$$

bu yerda: ρ – tasma materialining zichligi; A – tasmaning kesim yuzasi; v – tasma tezligi.

Shunday qilib, tasma tarmoqlaridagi kuchlar mos ravishda quyidagi cha bo‘ladi (7-rasm):



7-rasm.

Yetaklovchi tarmoq uchun

$$F_1 = F_0 + 0,5F_t + F_v.$$

Yetaklanuvchi tarmoq uchun

$$F_2 = F_0 - 0,5F_t + F_v.$$


F_1 va F_2 kuchlar tasmali yuritmaning valiga va, o‘z navbatida podshipniklariga qo‘shimcha reaksiya kuchlarini beradi. Bu kuchning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} F_v &= \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1F_2 \cos(180^\circ - \alpha_1)} \approx \\ &\approx (F_1 + F_2) \sin\left(\frac{\alpha_1}{2}\right) = 2F_0 \sin\left(\frac{\alpha_1}{2}\right) \end{aligned}$$

F_v kuchning yo‘nalishini o‘qlararo chiziq orqali yo‘naltiriladi va u son jihatida F_t kuchidan 2-3 marta kattadir.

4. Zanjirli yuritmalar


Zanjirli yuritma deb parallel joylashgan vallarga harakatni ularga mahkam o'rnatilgan va cheksiz zanjir bilan qamralgan yulduzchalar vositasida harakatning miqdori va yo'nalishini o'zgartirishga xizmat qiluvchi mexanizmga aytiladi (8-rasm a).




8-rasm. Zanjirli yuritmaning kinematik sxemasi.

1— yetaklovchi yulduzcha; 2- cheksiz zanjir; 3— yetaklanuvchi yulduzcha.

Zanjirli yuritmani zanjir konstruksiyasiga qarab tasniflash mumkin (9-rasm).



Vtulka-rolikli zanjir




Tishli zanjir.

9-rasm. Zanjir konstruksiyalari

a) bir qatorli; b) ikki qatorli.

a) sirpanuvchi; b) dumalovchi sharnirlar.



10 -rasm. Zanjirli yuritmaning kinematikasi

Zanjir – ko‘p zvenoli egiluvchan bog‘lanish bo‘lib uni:

- yuklarni siljitishda (**tortuvchi zanjir**);
- yuklarni ko‘tarib tushirishda (**yuk zanjirlari**);
- harakat uzatishda (**harakatlantiruvchi zanjir**) qo‘llash mumkin.

Zanjirli yuritmaning afzalligi:

- bir-biridan uzoq joylashgan (**8 m. gacha**) vallarga harakat uzatishga
- imkon berishi (uzata olishi);
- bitta zanjir bilan bir qancha vallarni harakat miqdori va yo‘nalishini o‘zgartirib harakatga keltirish mumkinligi (**8-rasm. a**);
- sirpanishning yo‘qligi;
- vallarga tushadigan yuklamaning tasmali yuritmaga nisbatan qariyb ikki marta kamligi;
- foydali ish koeffitsiyenti (**f.i.k.**)- η -ning yuqoriligi (ayrim xususiy hollarda $\eta = 0,97 \dots 0,99$);
- uzatilayotgan quvvat miqdorining ko‘pligi (**bir necha ming kilovattgacha**);
- zanjirning harakat tezligini $v_z = 35 \text{ m/s}$ gacha va uzatishlar sonini
- $i = 10$ gacha yetkazish mumkinligidan iborat.

Zanjirli yuritmaning kamchiligi:

- ishslash jarayonida dinamik yuklama va zanjir tezligining davriy o‘zgaruvchanligi natijasida shovqin chiqarishi va tebranishini oshishi (*Zanjirli yuritmaning kinematikasiga e’tibor bering, 10 -rasm.*);

– ishqalanish va moylanishni qiyinligi natijasida sharnirlarning tezkor yemirilishi;

– sharnirlarning yemirilishi va sirg‘alarning cho‘zilishi natijasida zanjirning cho‘zilishidan iborat.

Zanjirli yuritma metall kesuvchi, yog‘ochlarga ishlov beruvchi dastgohlarda, neft, gaz, tog‘-kon sanoati, transport va qishloq xo‘jalik mashinasozligida hamda boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Zanjirli yuritma pasaytiruvchi hamda ko‘paytiruvchi (*masalan, velosipedni orqa g‘ildiragiga harakat uzatish*) qilib tayyorlanadi.

Mas’ulyatli holatlarda, zanjirli yuritmani moylash vazifasini ham bajaruvchi qutilarda berk qilib tayyorlanadi.

Hamma zanjirlarda dastlabki hisobiy o‘lcham bo‘lib, yulduzchani bo‘luvchi aylanasi diametrining vatari bo‘yicha o‘lchanuvchi zanjir qadami *t* hisoblanadi.

Harakatlantiruvchi zanjirlar rolikli, vtulkali, tishli va shakldor zvenoli bo‘ladi. Ulardan dastlabki uch xili standartlashtirilgan.

5. Tishli yuritmalar va ularning turlari

Hozirda ma’lum bo‘lgan mexanizmlarning umumiyligi soni 450-550 dan oshib ketgan bo‘lsa-da, sanoatda eng ko‘p qo‘llaniladigan mexanizmlardan biri ***tishli mexanizm*** bo‘lib qolmoqda.


Tishli mexanizmlar o‘zining aniqligi, katta quvvatlarni uzata olishi, foydali ish koeffitsiyentining yuqoriligi, ularni ishlab chiqarish texnologiyasining mukammaligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, ushbu mexanizmda texnologik jarayonni bajarish uchun zarur bo‘lgan kinematik va dinamik parametrlarni aniq o‘zgartirish imkoniyatlari mavjud.

Tishli yuritmalar o‘zining turlari bo‘yicha ***silindrik, konussimon, chervyakli, reykali*** holda bo‘lib, unda tishli g‘ildiraklarning o‘qlari o‘zaro ***parallel, kesishuvchan*** va ***ayqash*** joylashgan bo‘ladi.


Tishli yuritma (***silindrik***) tashqi yoki ichki ilashma holida bo‘lishi mumkin va bu uning vallarining burchak tezliklarini yo‘nalishlarini har xil yoki bir xil bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyidagi rasmlarda tishli g‘ildiraklarning va yuritmaning keng tarqalgan ayrim turlarining kinematik sxemalari keltirilgan (11-rasm).



11-rasm.


Tishli g'ildirak turlari hamda tashqi va ichki ilashmali tishli yuritma. ω_1, ω_2 -burchak tezliklari.



12-rasm..Konussimon tishli yuritma

1-yetaklovchi konussimon tishli g'ildirak (shesternya); 2-yetaklanuvchi konussimon tishli g'ildirak, ω_1, ω_2 --burchak tezliklari.

Texnologik mashina yaratilayotganda quvvat uzatish yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan tishli yuritma turi tanlanadi.




13-rasm. Tashqi va ichki ilashuvli planetar mexanizmlarning kinematik sxemasi. ω_1, ω_2 --satellit va vodiloning burchak tezliklari

Slindrik tishli yuritmalarda g‘ildiraklardan birining o‘qi qo‘zg‘almas, ikkinchisini esa qo‘zg‘aluvchan bo‘lsa, bunday tishli yuritma **planetar mexanizmga** aylanadi. Bunda o‘qi qo‘zg‘aluvchan bo‘lgan tishli g‘ildirak o‘rnatilgan zveno **dastak** (vodilo) deyiladi. O‘qi qo‘zg‘aluvchan zveno-tishli g‘ildirak esa **yo‘ldosh** (satellit) deyiladi. O‘qi qo‘zg‘almas zveno(lar) esa **markaziy** yoki **quyoshsimon** g‘ildiraklar deyiladi (13-rasm).

6. Chervyakli yuritmalar

Chervyakli yuritma deb o‘zaro ayqash o‘qlar bo‘yicha joylashgan vallardagi aylanma harakatni o‘zgartiruvchi mexanizmga aytildi. Odatta, chervyakli yuritma chervyak -1 va u bilan tishlangan chervyakli g‘ildirak -2 dan iborat bo‘ladi (14-rasm).



14-rasm. Chervyakli yuritmaning umumiyo ko‘rinishi va sxemasi:
1-chervyak; 2-chervyak g‘ildiragi.

O‘qlarning ayqashish burchagi, odatda 90° bo‘ladi. Ortogonal bo‘l-magan yuritma kam uchraydi.

Chervyakli yuritma tishli yuritmalar turkumiga kirib, unda harakat vint juftligi qonuniyati asosida amalga oshadi.

Chervyakli yuritmani vintsimon tishli yuritmadan hosil qilish mumkin.

Agar qiya tishli g‘ildiraklardan birining tishini $z_1 = 1\dots 4$ gacha kamaytirib va ularning o‘qga qiyalik burchagini ko‘paytirsak, ya’ni shu yo‘l bilan qiya tishli g‘ildirakni vint (*chervyak*) ga keltirsak, chervyakli yuritma hosil bo‘ladi. Shuning uchun ham chervyakli yuritmalar tishli-vintli yuritmalar toifasiga kiradi.

Chervyak o‘rami va chervyakli g‘ildirak tishlari, odatda, chiziq bo‘ylab bir-biriga urinadi va shuning uchun ham oliy kinematik juftlikni hosil qiladi.

Odatda, chervyakli yuritmada chervyak yetaklovchi bo‘ladi, biroq chervyakli g‘ildirak yetaklovchi bo‘lgan ayrim mexanizmlar ham mavjud.

Chervyakli yuritmaning afzalliklari:

- uning ixchamligi va bir pog‘onali yuritmada ko‘p uzatish sonini olish mumkinligi (***u=300*** va undan ortiq);
- yuqori kinematik aniqligi va ishlashda o‘ta sokinligi;
- kam shovqinligi va tebranishga bardoshligi;
- o‘z-o‘zidan to‘xtatish (tormozlanish) ni hosil qilish imkoniyatlari.

Chervyakli yuritmaning kamchiligi:

- tishlashishda bir muncha geometrik siljishni hosil bo‘lishi va shuning natijasida ishqalanishni paydo bo‘lishi;
- yemirilishni ko‘pligi;
- tishlashib qolish holatiga moyilligi;
- yuritmani qizishi va *f.i.k.ning* ($\eta = 0,5 \div 0,95$) pastligi;
- ma’suliyatli yuritmalarda qimmatbaho va kamyob antifraksion rangli metallarni qo‘llash lozimligi.

Ko‘rsatilgan kamchiliklar chervyakli yuritmaning quvvatini cheklaydi (odatda $N = 60 \text{ kVt}$ gacha olinadi).

Chervyakli yuritmalar metall kesuvchi dastgohlarda, ko‘tarib-tushiruvchi qurilmalarda, transport mashinalarida, shuningdek, asbobsozlikda ko‘p qo‘llaniladi.

Chervyakning o‘ramlarini rezba frezerlovchi dastgohda diskali freza bilan yoki tokar-vintorez dastgohida keskich (rezets) bilan yo‘niladi.

Rezba yo‘nib bo‘lingandan va termik ishlov berilganidan so‘ng o‘ramlarning ishchi yuzalarini silliqlab jilvirlanadi, shu usulda yuritmaning yuklanish qobiliyatini oshiriladi.

Chervyakli g‘ildirakning chervyakli frezalar bilan tish yo‘nuvchi dastgohlarda ***obkatka*** usulida tayyorlanadi, bunda tishlarini kesuvchi asbobining shakli chervyakga o‘xshagan keskichlar holida bo‘lib, chervyakni hosil qiluvchi kesuvchi qirra va tomonlarga ega bo‘ladi. Bunday tayyorlanish jarayoni chervyak o‘ramlari va chervyakli g‘ildirak tishlari orasida chiziqli teginishni (kontakt) hosil qilish imkoniyatini beradi.

14-rasmda chervyakli yuritmaning asosiy turlarini sxematik ko‘rsatilgan: *a* – ko‘p tarqalgan, bo‘luvchi aylanasi va boshlang‘ich yuzasi silindr bo‘lgan, silindrik chervyakli yuritma; *b*) – globoid yuritma (bu yuritmani tayyorlash texnologiyasi murakkab).

Shuningdek chervyak-reykali yuritma (ushbu yuritma tishli-reykali yuritmaga nisbatan etarli darajada yumshoq ishlashga va qattiqlikka ega; chervyak va reyka o‘qlari burchak ostida yoki parallel joylashgan bo‘lishi mumkin, yuritmani bo‘ylama randalash, og‘ir frezerlovchi va yotiq-yo‘nuvchi dastgohlarda qo‘llaniladi).

Silindrik chervyakli yuritmalar uchun standartlar va qo‘yimlar mos ravishda yuritmani tayyorlash va yig‘ishga 12 (o‘n ikki) ta aniqlik darajasini belgilagan.


Kuch uzatish uchun mo‘ljallangan chervyakli yuritmalar odatda 6–8 aniqlik darajasida tayyorlanadi.

Chervyakli yuritmaning konstruksiyasi asosan yopiq holda tayyorlanadi.


7. Podshipniklar va muftalar. Yuritma sxemalari

Mexanik yuritmalar va ularning tarkibini hosil qiluvchi uzellarining ishlashi va bir-biri bilan bog‘lanishini ta’minlash uchun podshipniklar, muftalardan foydalaniladi. Quyida ularning keng tarqalgan turlaridan ayrimlari keltirilgan (15, 16-rasmlar).

Texnologik jarayon talablarini amalga oshirish uchun texnologik mashinalarni tuzishda qo‘llaniladigan mexanik yuritmalar va ularning tarkibini hosil qiluvchi uzellarining tuzilishi, ishlashi va bir-biri bilan bog‘lanishini to‘g‘ri tanlash mashinasozlik sohasiga qo‘yiladigan talablar asosida amalga oshiriladi




15-rasm. Sirpanish va yumalash podshipniklari



16-rasm. Muftalar.


Shuning uchun, ***mashina aggregatining*** (1-rasm) samarador, ishonchli ishlashini ta'minlash loyihalovchidan yetarli bilim talab qiladi.

Quyida «Amaliy mexanika» kursi bo'yicha amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun tuzilgan zanjirli va tasmali yuritmali ***mashina aggregatlarining*** sxemalari va konstruksiyalari keltirilgan(17,18-rasmlar)





17-rasm. Tasmali konveyerning kinematik sxemasi va maketi
 1—elektrodvigatel; 2—mufta; 3—chervyakli reduktor; 4—mufta; 5—konveyer tasmasi;
 6—taranglashtirgich.



18-rasm. Zanjirli konveyerning kinematik sxemasi va maketi:
 1—elektrodvigatel; 2—chervyakli reduktor; 3—mufta; 4—yetaklovchi
 yulduzcha; 5—yetaklanuvchi yulduzchalar.

Zanjirli yuritmalarining ishlashi va tuzilishini o‘rganish

Ishdan maqsad:

Zanjirli yuritmalarining ishlashi va tuzilishi bilan tanishish, ularning asosiy geometrik va kinematik o‘lchamlarini aniqlash.


Kerakli asbob – uskunalar:

Zanjirli yuritmaning harakatlanuvchi qurilmasi (1.1-rasm), 300 mm.li temir chizg‘ich, shtangensirkul, kalkulyator, chizmakashlik asboblari.

Qisqacha nazariy ma’lumot:


Zanjirli yuritma yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar hamda ularga kiydirilgan zanjirlardan iborat bo‘ladi. Yuritmalarida vtulkali, vtulkarolikli, tishli zanjirlar ishlatiladi.

Vtulka rolikni zanjir (1.2 -rasm) tashqi plastinaga 1, tig‘iz o‘rnatilgan valik –2, ichki plastinaga –5, tig‘iz o‘rnatilgan vtulka –3 va vtulkaga uning atrofida bemalol aylanadigan qilib kiydirilgan rolik –4 dan tuzilgan. Zanjir yulduzcha bilan roliklar yordamida ilashadi.



1.1-rasm. Zanjirli konveyerning kinematik sxemasi va maketi:

1-elektrodvigatel; 2-chervyakli reduktor; 3-mufta; 4-yetaklovchi yulduzcha; 5- yetaklanuvchi yulduzchalar.



1.2 -rasm. Vtulka- rolikli zanjirning tuzilishi:

1-tashqi plastina; 2-valik; 3-vtulka; 4- rolik; 5- ichki plastina.
a) egilgan plastinali; b) to‘g‘ri plastinali zanjir.


Rolikning yulduzcha tishiga tekkanda aylanib ketishi *sirpanib ishqalanishni dumalab ishqalanish* bilan almashtiradi. Bu hol tishlarning yeyilishini kamaytiradi.

Vtulkali zanjirlar vtulka rolikli zanjirlarga o‘xshaydi, lekin ularda rolik bo‘lmaydi. Shu sababli bunday zanjirlarning massasi va tannarxi kamayadi, lekin ularda zanjir detallari va yulduzchalar tishlarining yeyilishi ortadi.

Vtulkali va vtulka-rolikli zanjirlar bir, ikki, uch va to‘rt qatorli qilib tayyorlanadi. Vtulkali zanjirlar aylanma tezlik $v=5\text{ m/s}$ gacha bo‘lganda, vtulka-rolikli zanjirlar $v=20\text{ m/s}$ gacha tezlikda ishlataladi.

Tishli zanjirlar (**1.3-rasm**) valiklarga o‘rnatilgan ikkita uchida tishsimon chiqig‘i bo‘lgan plastinalar yig‘masidan iborat bo‘lib, ishlaganda kam shovqin chiqaradi. Tishli zanjirlar vtulka rolikli zanjirlarga nisbatan 1.5-2 marta katta tezlik bilan ishlay oladi, ya’ni ularning tezligi 30-40 m/s ga yetadi.

Tishli zanjir plastinalarning tuzilishi har xil bo‘ladi. Plastinalar orasidagi asosiy farq ular uchun mo‘ljallangan sharnirlarning tuzilishidadir. Sharnirlar sirpanib ishqalanish yoki dumalash ishqalanish principida ishlaydigan qilib tayyorlanadi. Tishli plastinalar (4,5) o‘zaro va zanjirning eni bo‘ylab valikka (3) o‘rnatiladi (**1.3 -rasm**). Valik bilan plastinalar orasiga vkladishlar (1,2) o‘rnatiladi.



1.3 -rasm. Tishli zanjirning sxemasi

Zanjirli yuritmalarning asosiy o‘lchami – ularning qadamidir. Zanjirning qadami $-t$ deb ikki qo‘sni valik o‘qlari orasidagi masofaga aytildi. Zanjirli yuritmalarning yulduzchalari disk va gupchaklarning shakliga qarab har xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Lekin ularning gardishlari ma’lum bir yuritma uchun bir xil bo‘ladi. Barcha turdag‘i zanjir yulduzchalari bo‘luvchi aylanalarning diametrlari zanjir valiklarining markazidan o‘tadi va qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$d = \frac{t}{\sin(180^\circ / z)}$$

bu yerda: t - zanjir qadami, mm; z - yulduzcha tishlarining soni.

Tishli zanjir bo‘luvchi aylanasining diametri ham valiklar markazidan o‘tadi, lekin bu diametr yulduzcha tishlaridan tashqarida joylashadi. Bo‘luvchi aylana diametri tishli zanjir uchun ham yuqoridagi ifoda orqali topiladi.

Zanjirli yuritma o‘qlari orasidagi masofa α - quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$\alpha = \frac{t}{4} \left[\left(L_t - \frac{Z_1 + Z_2}{2} \right) - \sqrt{\left(L_t - \frac{Z_1 + Z_2}{2} \right)^2 - \left(8 \frac{Z_2 - Z_1}{2\pi} \right)^2} \right]$$

bu yerda: t - qadam, mm; Z_1, Z_2 – yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar tishlari soni; L_t - zanjir zvenolarining soni. Zanjirli yuritma

normal ishlashi uchun zanjir ma'lum darajada salqi bo'lishi kerak. Salqi-likni ta'minlash uchun topilgan qiymat (0,002-0,004) α miqdorga kamaytirilishi kerak.

Amaliy qism

Ishni bajarish tartibi.

O'qituvchi dastlab talabalarga harakatlanuvchi zanjirli yuritma qurilmasining tuzilishini va ishlashini tushuntiradi.

Qurilma energiya manbaidan ajratilgandan so'ng talabalar mashg'u-lotni bajarishga kirishadilar.

Ishni bajarishda ishlatiladigan asbob va uskunalar: Vtulka-rolikli zanjirli yuritma; o'lchovli chizg'ich va shtangensirkul.

- zanjirli yuritmaning turi aniqlanadi;
- o'rganilayotgan yuritmaning quyidagi o'lchamlari aniqlanib,
- natija 1-jadvalga yoziladi;
- yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzcha tishlar soni (Z_1 va Z_2) sanaladi;
- zanjir zvenolarining soni (L_1) sanaladi;
- zanjirning qadami (t) o'lchanadi;
- o'qlararo masofa (a_w) o'lchanadi.
- Yuritmaning quyidagi kattaliklari hisoblanib, natija 1-jadvalga yoziladi.
- uzatish soni - (u);
- yulduzcha bo'luvchi aylanalarining diametrlari (d_{01}, d_{02});
- zanjir uzunligi ($L=L_1 t$);
- o'qlararo masofa (a);
- o'qlararo masofaning o'lhash va hisoblash natijalari orasidagi farq - (Δa).

Hisobot shakli:

Bajarilgan laboratoriya ishi yuzasidan tayyorlanadigan hisobot shaklida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- ishdan ko'zda tutilgan maqsad yoziladi;
- zanjir qisminaing xomaki chizmasi chiziladi;
- laboratoriya natijalari yozilgan jadval to'ldiriladi;
- bajarilgan ishga qisqacha xulosa yoziladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNI-
KA UNIVERSITETI**

«MEXANIKA» FAKULTETI

**«MATERIALLAR QARSHILIGI VA MASHINA DETALLARI»
KAFEDRASI**

«AMALIY MEXANIKA»fanidan

LABORATORIYA ISHI

Mavzu: “Zanjirli yuritmalarining ishlashi va tuzilishini
o‘rganish”.

Bajardi:fakultetining guruhi talabasi


.....
(Nasabi, ismi, sharifi)

Qabul qildi
(Nasabi, ismi, sharifi)

Toshkent 201...

1-laboratoriya ishi

“Zanjirli yuritmalarining ishlashi va tuzilishini o‘rganish”



1 1 - rasm. Zanjirli yuritmaning qurilmasi: 1-yetaklovchi yulduzcha; 2-zanjir; 3 - tosh; 4 - yetaklanuvchi yulduzchalar; 5 -kulisa.

Ishdan maqsad:

Zanjirli yuritmalarining ishlashi va tuzilishi bilan tanishish, ularning asosiy geometrik o‘lchamlarini aniqlash.


Qisqacha nazariy ma’lumot:

Zanjirli yuritma yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar hamda ularga kiydirilgan zanjirlardan iborat bo‘ladi. Yuritmalarda vtulkali, vtulkarolikli, tishli zanjirlar ishlatiladi.

Vtulka rolikni zanjir (rasm) tashqi plastinaga -1, tig‘iz o‘rnatilgan valik-2, ichki plastinaga-5, tig‘iz o‘rnatilgan vtulka - 3 va vtulkaga uning atrofida bemalol aylanadigan qilib kiydirilgan rolik - 4 dan tuzilgan. Zanjir yulduzcha bilan roliklar yordami bilan ilashadi.

Rolikning yulduzcha tishiga tekkanda aylanib ketishi *sirpanib ishqalanishni dumalab ishqalanish* bilan almashtiradi. Bu hol tishlarning yejilishini sustlashtiradi.

Vtulkali zanjirlar vtulka- rolikli zanjirlarga o‘xshaydi, lekin ularda rolik bo‘lmaydi. Shu sababli bunday zanjirlarning massasi va tannarxi kamayadi, lekin ularda zanjir detallari va yulduzchalar tishlarining yejilishi ortadi.



b)

1.2-rasm. Vtulka rolikli zanjirning tuzilishi:

1-tashqi plastina; 2-valik; 3-vtulka; 4-rolik; 5-ichki plastina.

a)-egilgan plastina; *b*)-to‘g‘ri plastinali zanjir.

Vtulkali va vtulka-rolikli zanjirlar bir, ikki, uch va to‘rt qatorli qilib tayyorlanadi. Vtulkali zanjirlarda aylanma tezlik $v=5\text{ m/s}$ gacha bo‘lganda, vtulka-rolikli zanjirlar $v=20\text{ m/s}$ gacha tezlikda ishlataladi.

Tishli zanjirlar ishlaganda kam shovqin chiqaradi. Tishli zanjirlar vtulka-rolikli zanjirlarga nisbatan 1.5-2 marta katta tezlik bilan ishlay oladi, ya’ni ularning tezligi 30-40 m/s ga yetadi.

Zanjirli yuritmalarining asosiy o‘lchami – ularning qadamidir. Zanjirning qadami -*t* deb, ikki qo‘shti valik o‘qlari orasidagi masofaga aytiladi. Zanjirli yuritmalarining yulduzchalari disk va gupchaklarning shakliga qarab har xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Lekin ularning gardishlari ma’lum bir yuritma uchun bir xil bo‘ladi. Vtulkali, vtulka-rolikli zanjir yulduzchalri bo‘luvchi aylanalarning diametrlari zanjir valiklarining markazidan o‘tadi va qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{\circ} = \frac{t}{\sin(180^\circ / z)}$$

bu yerda: *t* - zanjir qadami, mm; *z* - yulduzcha tishlarining soni.

Tishli zanjir bo‘luvchi aylanasining diametri ham valiklar markazidan o‘tadi, lekin bu diametr yulduzcha tishlaridan tashqarida joylashadi. Bo‘luvchi aylana diametri tishli zanjir uchun ham yuqoridagi ifoda orqali topiladi.

Zanjirli yuritma o‘qlari orasidagi masofa α - quyidagicha topiladi:

$$\alpha = \frac{t}{4} \left[\left(L_t - \frac{Z_1 + Z_2}{2} \right) - \sqrt{\left(L_t - \frac{Z_1 + Z_2}{2} \right)^2 - \left(8 \frac{Z_2 - Z_1}{2\pi} \right)^2} \right]$$

bu yerda: t - qadam, mm ; Z_1, Z_2 – yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar tishlari soni; L_t - zanjir bo‘g‘inlarining soni. Zanjirli yuritma normal ishlashi uchun zanjir ma’lum darajada salqi bo‘lishi kerak. Salqilikni ta’milash uchun topilgan qiymat ($0,002$ - $0,004$) α miqdorga kamaytirilishi kerak.

Amaliy qism

Ishni bajarish tartibi:

O‘qituvchi dastlab talabalarga zanjirli yuritmaning harakatlanuvchi qurilmasining tuzilishini va ishlashini tushuntiradi.

Qurilma energiya manbasidan ajratilgandan so‘ng talabalar mashg‘ulotni bajarishga kirishdilar.


Ishni bajarishda ishlatiladigan asbob va uskunalar: vtulka-rolikli zanjirli yuritma; o‘lchovli chizg‘ich va shtangensirkul.

- zanjirli yuritmaning turi aniqlanadi;
- o‘rganilayotgan yuritmaning quyidagi o‘lchamlari aniqlanib,
- natija jadvalga yoziladi:
- yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzcha tishlar soni (Z_1 va Z_2) sanaladi;
- zanjir zvenolarining soni (L_t) sanaladi;
- zanjirning qadami (t) o‘lchanadi;
- o‘qlararo masofa (a_w) o‘lchanadi.
- Yuritmaning quyidagi kattaliklari hisoblanib, natija 1-jadvalga yoziladi.
 - uzatish soni - (u);
 - yulduzcha bo‘luvchi aylanalarining diametrlari (d_{01}, d_{02});
 - zanjir uzunligi ($L=L_t t$);
 - o‘qlararo masofa (a);
 - o‘qlararo masofaning o‘lhash va hisoblash natijalari orasidagi farq -(Δa).

Hisobot shakli:

Bajarilgan laboratoriya ishi yuzasidan tayyorlanadigan hisobot shaklida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- bajarilgan laboratoriya ishidan ko‘zda tutilgan maqsad yoziladi;
- zanjir qisminaing xomaki chizmasi chiziladi;
- laboratoriya natijalari yozilgan jadval to‘ldiriladi;
- bajarilgan laboratoriya ishiga qisqacha xulosa yoziladi.



“Zanjirli yuritmalarining sxemas

Zanjirli yuritmaning parametrlari

1-jadval

Parametrlarning nomlanishi	Belgilanishi	Qiymat va o‘lchamlari	
Zanjir turi	PR		
Yulduzchalarining zvenolar soni	Yetaklovchi	z_1	
	Yetaklanuvchi	z_2	
Uzatish soni (u)		$u = z_2/z_1$	
Zanjir qadami (mm)	O‘lchangani	t_3	
	DAST bo‘yicha	t	
Bo‘luvchi aylana diametrlari (mm)	Yetaklovchi	D_{01}	
	Yetaklanuvchi	D_{02}	
Zanjirning zvenolari soni	L_t		
Zanjir uzunligi (mm)	L		
O‘qlararo masofa (mm)	Haqiqiy	a_w	
	Hisobiy	a	
O‘qlararo masofadagi tafovut, %	$\Delta a = \frac{a - a_w}{a} \cdot 100\%$		

Tekshirish uchun savollar:

- 1.Zanjirlar tuzilishi bo‘yicha qanday bo‘ladi?
- 2.Nima uchun zanjirning turiga qarab ularni har xil aylanma tezliklarda qo‘llaniladi?
- 3.Nima uchun zanjir ma’lum darajada salqilik bilan o‘rnatilishi kerak?

2-Laboratoriya ishi

“Tasmali yuritmalarining ishlashi va tuzilishini o‘rganish”



Ishdan maqsad: tasmali yuritmalarining ishlashi va tuzilishi bilan tanishish, ularning asosiy geometrik o‘lchamlarini aniqlash.

Nazariy qism:

1. Tasmali yuritmalar

Tasmali yuritma deb vallarga mahkamlangan *shkivlar* va shkivlarni qamrab oluvchi cheksiz egiluvchan bog‘lovchi – harakatlanuvchi *tasmadan* iborat aylanma harakatning miqdori va yo‘nalishini o‘zgartirishga xizmat qiluvchi mexanizmga aytildi (4-rasm).

Tasmali yuritma mashinasozlik sanoatining barcha sohalarida qo'llanadi va mexanik yuritmalarning eng qadimgilaridan hisoblanadi. Ko‘p hollarda tasmali yuritmalar harakatni pasaytiruvchi qilib tayyoranadi.

Tasmali yuritmaning afzalliklari:

- konstruksiyasining oddiyligi va foydalanishdagi qulayligi;
- harakatlantiruvchi tasmaning xususiyatlari natijasidagi bir-biridan uzoq joylashgan (**15 m** va undan ko‘p) vallarga harakatning miqdori va yo‘nalishini o‘zgartirib uzata olishi;
- ishlashidagi sokinlik va shovqinsizlik;
- tannarxining pastligi.

Kamchiliklari:

- harakatlantiruvchi tasmalarning umurboqiyilining kamligi;
- nisbatan joylashish gabaritsining kattaligi;
- tasmani taranglashtiruvchi kuch natjasida vallar va ularning tayanchlaridagi yuqori yuklanishlar;
- tasma bilan shkiv orasidagi sirpanishning mavjudligi sababli ko‘pchilik tasmali yuritmalarndagi uzatishlar sonining doimiy emasligi.

Ko‘rsatilgan afzallik va kamchiliklar tasmali yuritmani murakkab yuritmalarning tezkor pog‘onasida qo'llashning maqsadliligini ta’millaydi, ko‘p hollarda yetaklovchi shkivni elektr yurgizgich valiga o‘rnatish kuzatiladi.

Hozirda qo'llanilayotgan tasmali yuritmalarndagi uzatiladigan quvvat **50 kVt** dan oshmaydi, chunki katta quvvatlarda yuritmaning gabariti juda ham qo‘pollashadi.

Amaliy qism


Ishni bajarish tartibi:

O‘qituvchi dastlab talabalarga harakatlanuvchi tasmali yuritma qurilmasining tuzilishini va ishlashini tushuntiradi.

Qurilma energiya manbasidan ajratilgandan so‘ng talabalar mashg‘ulotni bajarishga kirishadilar.

Ishni bajarishda ishlatiladigan asbob va uskunalar: tasmali yuritma qurilmasi; o‘lchovli chizg‘ich va shtangensirkul.

- tasmali yuritmaning turi aniqlanadi;
- o‘rganilayotgan yuritmaning quyidagi o‘lchamlari aniqlanib, natija jadvalga yoziladi;



Tasmali yuritmalarning kinematik sxemasi

Odatda, tavsiya etiladigan yetaklovchi shkiv diametri quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$d_1 \approx (52 \dots 64) \cdot \sqrt[3]{T_{1bur}}$$

- yetaklovchi shkiv diametri d_1 o‘lchanadi;
- yetaklanuvchi shkiv diametri d_2 o‘lchanadi;
- DAST bo‘yicha d_1^* , va d_2^* tanlanadi;

$$\text{Tasmaning uzunligi } l_x = 2a' + 0,5\pi(d_1 + d_2) + 0,25(d_2 - d_1) \cdot \frac{2}{a}$$

hisoblanadi;

Ponasimon tasmali yuritma uchun

$$a_{min} = 0,55 \cdot (d_1 + d_2) + h$$

$$a_{max} = 2 \cdot (d_1 + d_2) + h$$

$$a_{min}=$$

$$a_{max}=$$

lar hisoblanadi.

Hisobot shakli:

Bajarilgan laboratoriya ishi yuzasidan tayyorlanadigan hisobot shaklida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- bajarilgan laboratoriya ishidan ko'zda tutilgan maqsad yoziladi;
- tasmali yuritmaning xomaki chizmasi chiziladi;
- laboratoriya natijalari yoziladigan jadval to'ldiriladi;
- bajarilgan ishga qisqacha xulosa yoziladi.

Tasmali yuritmaning parametrlari

1 - jadval

Parametrlarning nomlanishi	Belgilanishi	Qiymat va o'lchamlari
$d_1 \approx (52 \dots 64) \cdot \sqrt[3]{T_{1bur}}$	d_1	
yetaklovchi shkiv diametri	d_1	
yetaklanuvchi shkiv diametri.	d_2	
DAST bo'yicha	d_1^*	
DAST bo'yicha	d_2^*	
<i>Tasmaning uzunligi</i> $l_x = 2a' + 0,5\pi(d_1 + d_2) + 0,25(d_2 - d_1) \cdot \frac{2}{a}$	l_x	
<i>Ponasimon tasma uchun</i> $a_{min} = 0,55 \cdot (d_1 + d_2) + h$	a_{min} ,	
$a_{max} = 2 \cdot (d_1 + d_2) + h$	a_{max}	
<i>Uzatish nisbati</i> $u = \frac{\omega_1}{\omega_2} = \frac{n_1}{n_2} = \frac{d_2}{d_1(1-\varepsilon)}$	u	
<i>Uzatish nisbatining haqiqiy qiymati</i> $u_h = \frac{d_2^*}{d_1^*(1-\varepsilon)}$	u_h	

Tekshirish uchun savollar:

1. Tasmalar tuzilishi bo'yicha qanday bo'ladi?
2. Nima uchun tasmaning turiga qarab ularni har xil aylanma tezliklarda qo'llaniladi?
3. Nima uchun tasma ma'lum darajada taranglik bilan o'rnatilishi kerak?

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. Karimov R.I, Saliyev A. Amaliy mexanika. -T.: Fan va texnologiya, 2005. 268 b.
2. Usmonxo‘jaev X.X. Mashina va mexanizmlar nazariyasi. -T.: O‘qituvchi, 1981. 520 b.
3. Frolov K.V va boshqalar. Mashina va mexanizmlar nazariyasi. T.: O‘qituvchi, 1990, 495 b. (tarjima).
4. Maxmudova N.X. “Amaliy mexanika” fanidan laboratoriya ishlari. -T.: ToshDTU, 2005 y. 64 b.
5. Shoobidov Sh.A. Mashina detallari: Texnika oliv o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: “O‘zbekiston ensiklopediyasi”, 2014. - 444 b.
6. Karimov R.I., Abdusalyamov M., Baratov N.B., Maksudova N.A.«Amaliy mexanika» fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent, ToshDTU, 1999 y.

Qaydlar uchun

MUNDARIJA

1. Mexanik yuritmalar haqida umumiylumotlar.....	3
2. Yuritmalarning asosiy tasnif va tavsiflari.....	4
3. Tasmali yuritmalar.....	6
4. Zanjirli yuritmalar.....	13
5. Tishli yuritmalar va ularning turlari.....	15
6. Chervyakli yuritmalar	17
7. Podshipniklar va muftalar. Yuritma sxemalari.....	19
Zanjirli yuritmalarning ishlashi va tuzilishini o‘rganish	22
1-laboratoriya ishi. Zanjirli yuritmalarning ishlashi va tuzilishini o‘rganish.....	27
2-laboratoriya. Tasmali yuritmalarning ishlashi va tuzilishini o‘rganish ishi	32
Foydalanish uchun adabiyotlar.....	37

Muharrir *Sidikova K.*